



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Buxoro - 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO'LIMI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to'plami*

Buxoro 2024-yil, 15-may

haqida ortiqcha izohga hojat qolmasa kerak. Yozuvchi tomonidan yozilgan “*Vaalaykum assalom, mullo bo’ling, tasadduq,*” degan jumlar ingliz tiliga “*Good morning, well done, – answers grandfather Ermon weighty*” deb oddiygina tarjima qilinganidan shuni aytishimiz mumkin, bu kabi muomala madaniyati bizning millatimiz aslyatiga xos bo’lib, uni tarjima qilganda bu so’zlarni to’laqonli ifodalab beradigan jumlar mos kelmagan.

Qissada keltirilgan “Ermon buvaning tilagi” hikoyasini mutolaa qilishda davom ettiradigan bo’lsak,

O’tkir Hoshimov qalamiga mansub bo’lgan “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan “Ermon buvaning tilagi” hikoyasini o’zbek va ingliz tiliga tarjima qilingan matnlarini jadval ko’rinishida berib, unda asl matndan ingliz tiliga tarjima qilinganda aslyatning saqlanib qolishi haqidagi savollarga misollar yordamida atroflicha javob topishga harakat qildik. Bunda berilgan misollardan shuni anglashimiz mumkin, asl matn yozilgan xalqning milliyligini, qadriyatlarini boshqa tilga o’zgirganda tarjimondan juda yuksak mahorat talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E. Ochilov., Tajima nazariyasi va amaliyoti. – T., 2012
2. G’afurov I., Mo’minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. – T., 2012
3. G’afurov I. Tarjimshunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.
4. Mo’minov O., Turg’unov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation – Yozma tarjima – Pismenny perevod. –T., 2008.
5. O’tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari” Toshkent 2005.
6. Obidxon Mo’minov, “Affairs of life” Tashkent 2013.

ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE’MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSI HAQIDA

N.J.Bekova,

O’zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori (DSc)

D.F.Achilova,

Matshunoslik va adabiy manbashunoslik

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti,

d.f.achilova@buxdu.uz

Annotation: This article contains information about the life activity and creative heritage of Abdulkadir Karomatullah ibn Nematullah Sheikh Sabbag Bukhari, who lived in the 20th century.

Keywords: Sabbagh Bukhari, Saudi Arabia, tazkirah, sheikh, madrasa, rare books, manuscript, hijra, ghazal.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrda yashagan Abdulqodir Karomatullo ibn Ne’matullo shayx Sabboq Buxoriy hayotiy faoliyati va ijodiy merosiga doir ma’lumotlar o’rin olgan.

Kalit so'zlar: Sabboq Buxoriy, Saudiya Arabistoni, tazkira, shayx, madrasa, nodir kitoblar, qo'lyozma, hijrat, g'azal.

Аннотация: В данной статье собраны сведения о жизненной деятельности и творческом наследии Абдулкашира Кароматуллы ибн Нематуллы шейха Саббага Бухари, жившего в XX веке.

Ключевые слова: Саббар Бухари, Саудовская Аравия, tazkira, шейх, медресе, редкие книги, рукопись, хиджрат, газаль.

Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo Sabboq Buxoriy 1903-yili Buxoro shaharidagi ahli Qur'on oilasida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'limni uylaridatalari qo'lida olgach, 12 yoshida madrasaga qatnay boshlagan. O'z zamonasiing mashhur ulamolaridan Asadillo Mahmudga shogird bo'lgan. Ayni o'qib yurgan yillari davlat to'ntarishi yuz berib Sovet tizimiga asos solingan. Bir necha yil Asadillo Mahmuddan ta'lim olgach, madrasani tugatib mullalik faoliyatini endi boshlaganda, Buxoroda ham hayotdan putur ketdi. Dahriylik zug'umi ostida Asadillo Mahmudiyga o'xshagan zabardast mullolar madrasalarni tark etishga majbur bo'ldilar. Shogirdlari u kishini qishloqqa olib ketib, kichkina masjidida qo'nim topdilar. Tez orada Sovet hokimiyatining mash'um quloq siyosati boshlanib endi din peshvolariga ham ochiq hujum boshlandi. Xususan Buxoroda ham uning aks sadosi kuchli bo'ldi. Negaki bu qadimiy ilm markaziga yirik mullolar islomiy ulamolar ko'p edi. Olimlik darajasiga endigina erishgan Abdulqodir Karomatullo ustozlari oldiga qishloqqa bordi. Maslahatni bir joyga qo'yib ustozlari bilan 1931-yili Buxoroni tark etdilar va Afg'onistonga jo'nadilar. Go'r azobiga teng yo'l azobini tortdilar. Nihoyat ko'p qatori ular ham tunda yuqorida tarifi keltirilgan "Gufsar" da suzib, ammo daryodan eson-omon yetishib Qunduz shahriga yetib bordilar. Ustoz Asadillo Mahmud chog'roq bir masjidida imomlik vazifasiga tayinlandi. Bir vaqtning o'zida ustoz-shogird xususiy maktabda ham dars bera boshladilar. Shogird Abdulqodir ustozlari bilan doimo birga bo'ldi. Musofirlikda ham u kishining xizmatini qildi. Tirikchilik bir nav o'tib ketdi. Bu orada Qunduzda vatandoshlar ham ko'payib qoldi. 3yil o'tgach Abdulqodirning boshiga musibat tushdi: 1935-yili ustozlari vafot etdi. Abdulqodirga ustozsiz Qunduz go'yo torlik qildi-Eronga ketdi. U yerda ham ishi yurishmay Iroqqa kelib Bag'dod madrasalaridan biriga o'qishga kirdi. Yana ilm olishni davom ettirdi. 2yil oliy madrasada o'qidi. Biroq tirikchilik ham kerak. Tavakkal qilib 1938-yili tasodifan uchrab qolga bir ham yurti bilan birga Bag'doddan Saudiya Arabistoniga yo'l oldi. Makkai Mukaramdagi "madrasai oliya"lardan biriga joylashdi. U davrda Buxoriylar kam, shuning uchun ular hozircha e'tibordan chetda edilar.

Abdulqodir Karomatullo o'z bilimi va hushyorligi bilan tezda tanildi, do'stlari ortirdi va 1941-yili Arabistonning janubidagi Abho shahriga kelib, arabcha maktabga o'qituvchi qilib tayinlandi. Besh bu yerda o'qituvchilik qilgach, 1946-yili Qizil dengizga yaqin Robig' shahriga ko'chib keldi va nihoyat ro'zg'or qilish fursati yetib shu yerda 43yoshida bir arab qiziga uylandi. Yarim asrdan oshiq Abdulqodir Karomatullo ushbu shaharda istiqomat qildi. U kishi ham qori, ham olim, ham adib-shoir, xushxulq inson, Vatanni, millatni qalbidan sevadigan mo'min edilar.

Ma'lum bo'ldiki, olim qartayib qolganiga qaramay, 1991-yili ona shahri Buxoroga borib kelibdi. Amakilaridan Qudratullo, Inoyatullo, Hidoyatullo, Rahmatullolarning farzandlari bilan yuz ko'rishgan va bolalik yillari o'tgan ko'chamahallalarni, "Mir Arab" madrasasini ziyorat qilib kelgan. Shundan buyon Buxoro bilan aloqasi uzilmaydi. Keyingi yillari O'zbekiston musulmonlari idorasi orqali Buxorodagi "Mir Arab" islom o'quv yurtiga yetti sandiq kitob hadya qilgan. Kitoblarni olishgani haqida madrasadan minnatdorchilik xati ham kelibdi. Isomiddin Roshidriyning "Shuaroi Kashmir" nomli 6 jildli asari va "Tazkirai majmuai shuaroi Jahongir shoh" kabi asarlar eng noyob kitoblardir. Shuningdek, 1905-yilgi Rus-Yapon urushi haqidagi 3 jildli turkcha kitob ham bor.

Olimning 2 o'g'li, 3 qizi bor. O'g'illari yaxshi ishlarda, qizlari ham arab maktablarida muallima bo'lib ishlaydilar. Qariyaning bittagina armoni bor, u ham bo'lsa, Vatan firoqi va nashrga tayyorlangan qo'lyozmalarning taqdiri.

Darhaqiqat, buxoroliklar bir onaning ikki ko'krigidan bab-baravar bahramand, ikki ulkan xazina sohibi, ikki daryo suvidan serob, ikki buyuk xazina merosxo'ri, yani, o'zbek va tojik tili egasidurlar. Bu siyalarning biridan tonish nonko'ri hisoblanadi. Daryoning bir suviga tupurish gunohi kabitur. Bu xazinalarning biridan bebahra qolish jaholat nishonasi erur.

"Yaqinda oltmish yillik hijratdan so'ng Buxoroyi shanifga shoir Shayx Abdulqodir bin Karomatullo Sabboq Buxoriy mehmon bo'ldilar. „Siz qaysi millatga mansub bo'lib, turkey, forsiy, arabiy tillar egasiman“. – deb javob berdilar. Darhaqiqat, barcha musulmonlar Ibrohim Xalilulloh millatidadir" – deb xotirlagandi ustoz shoirimiz ham Sadridin Salim Buxoriy.

Shayx Sabboq Buxoriy shanifni ziyorat etib, tengdoshlari Qori Aziz, Ahmadjon, shuningdek tug'ishgan ukalari, ayni kunlarda Buxoro tumaniga qarashli G'urbun qishlog'ida istiqomat qiluvchi Abdurahob bilan diydorlashib, Allohga shukronalar qildilar. Ko'pchilik o'shanda ustoz Sabboq suhbatlaridan bahramand bo'ldi, u kishining duolarini oldi. Sabboq Buxoriyning ijodiy faoliyatlari haqida ilk bor o'z yurtlarida ilmiy tadqiqot „Susambil" gazetasida (N2, 1991 yil) chop qilingan edi. Quyida keltiradigan ijod namunalari she'riyat gulshanidan atigi bir dasta gulchambar bo'lib, Sabboq Buxoriy haqida qisqacha bilishimiz uchun darvoza bo'ladi.

Banim xudoyimdur

Qadim xamida xayoli qadi asoyimdur,
Guhum ko'lankasi davlati qushi xumoyimdur.
Muhabbat o'tina qo'ydim annu nola banim,
Tilim taronasi olu fig'oni navoyimdur.
Jahon saodatini bango kim nasib etgay,
Etorsa lutf ila ul sho'xi xushliqoimdur.
Vafu elina banim bir qara muqoyasa ef
Vafu elina baland oshiyona joyimdur.
Elim faqirligimi e'tibora tark etsa
Elimmi lutf ila olgan banim xudoyimdur.

Sesing tutildi bu yanglig' nechukla ey, Sabboq
 Tutilmisha sabab ul chashmi surmasoimdur.
 Qilg'on ishorasi
 Oshiq man ishq dashtini bir shaxsuvorasi,
 Darmon etar du olama ko'nghummi yorasi.
 Buxoni ishq ohi fig'onim dalildur,
 Hujjat demang alangayi ohim sharorasi.
 Dardim davosi yor visolidur, ey rafiq,
 Vaslidan o'zga bo'lmagay oshiqni chorasi.
 Ul podshohi husn, ki har yon xirom etar,
 Shoxin g'amza birla dil qushin aylar shikorasi.
 Laylocha bir qarashma ilan mot etar ko'zi,
 Farzin qilur priyodani qilg'on ishorasi.
 La'li labi jarohat siynammi malhami,
 Zikri qadidur ikki ko'zimning nazorasi.
 Har kimsa ko'rsa holimi Sabboq lavm etar,
 Oshiq o'hummi kimsani o'lmasa porasi.

•Lavm- ta'na, malomat.

Mushkulni oson aylagil

Gulruhim kelgil bu kulbammi guliston aylagil,
 Oy yuzing burqa arosidin namoyon aylagil.
 Mudai ko'mmay yuzing iffatni da'vo ayladi,
 Och yuzing onlarni lofidin pushaymon aylagil.
 Zuxdu taqvo mudai zohidlarning ahvolini,
 Bir xirom aylab alar xolin parishon aylagil.
 Ko'b zamonlardur sening vasling tamanno aylaram,
 Tut qo'limni emdi bu mushkulni oson aylagil.
 Ishq o'ti so'ndi vujudim shamini ey dilbarim,
 Olm ani ko'ksing'a bu dardinga darmon aylagil.
 Bul havas oshuqlaring qo'y bovafo ilgini tut,
 Bovafo oshuqlarning o'zingga qurbon aylagil.
 O'lmagan hajringda Sabboqingni emdi ey, gulum
 Bu qulingni bir kecha o'zingga mehmon aylagil.

Tarjiband

Kel ey qosid salomim nozanin dildora etkurgil
 Yuzi gul, lablari nml, ko'zlari xumora etkurgil.
 Bilib xolim tag'oful etguvchi xumxora etkurgil,
 O'zi gar bilsa bilsun kel yana bir bora etkurgil.
 Sabo arzim eshit payg'onimni gulyora etkurgil.
 Fig'onu ohi zorim sho'xi gulruksora etkurgil.
 Fig'on ey do'stlar hijron o'ti kuydurdi jonimni,
 Eshitmas ul sitangar bir yo'lu oxu fig'onimni
 O'lurman boshima bir kelturunglar yori jonimni
 Shaxidi ishq qabri deb yozing qabringa nomimni.

Sabo arzim eshit payg'onimi gulyora etkurgil,
 Fig'onu oxu zorim sho'xi gulruksora etkurgil.
 Bukuldi oqibat furqat yukidin qomatim kundek,
 Qurib ketti vujudim toru pudi simi tilfundek,
 Darig'o yorni alvolini ko'rsam digargundek,
 Ravonu muncha xam javru javolar qilsa gargundek
 Sabo arzim eshit payg'onima gulyora etkurgil,
 Fig'onu ohu zorim sho'xi gulruksora etkurgil.
 Tabibo ranj chekma yor dardi manga darmondur,
 Shaxidi ishq o'lg'on tongla bilgil shodu xandondur,
 Vujudin yor qurbiga hijob o'lg'on shu amondur.
 Agar ishq fano o'lsam muborak vasli jonondur
 Sabo arzim eshit payg'onimi gulyora etkurgil
 Fig'onu ohu zorim sho'xi gulruksora etkurgil.
 •Loxiq- keyil qo'shilgan, qo'shimcha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sayfiddin Jalilov. Buxoriylar qissasi (Muhajirat tarixidan lavhalar). „Toshkent islom universiteti“ nashriyoti. T.-2006. –B. 151-153
2. Salmonov A.M. O'zbekitonda xudosizlik uchun kurash\\ FarDU, Xabarlar; 2001. – B. 67-71.
3. Sadriddin Salim Buxoriy. Maqola. Buxoroi sharif. 2001-yil fevral soni
4. Samad Azimov. Buxoroyi sharif ziyolilarining mustaqil nashri. 1992-yil yanvar
5. Internet manbalari
6. Susambil. 1992yil. yanvar. N.3.
7. Susambil. 1991yil. N2
8. Buxoroyi SHarif 2001. 17-fevral
9. Buxoroyi Sharif 2000 2-dekabr

EMILY DICKINSON AS A ROMANTIC POET

S.B. Khamdamova,

BukhSU, teacher at English literature and Translation studies department

V.Sh. Gaybulloyeva,

BukhSU, MA student of English literature and Translation studies department

v.sh.gaybulloyeva@buxdu.uz

Annotation. This thesis will examine Emily Dickinson's poetry through the lens of romanticism, focusing on her engagement with nature, love, and emotions. By analyzing key poems and exploring Dickinson's unique voice and style, this

<i>Sh.R.Rakhimova</i>	UNDERSTANDING CHARACTERS THROUGH SYNTACTICAL STYLISTIC DEVICES IN "TRANSATLANTIC" BY COLUM MCCANN.....907
<i>D.U.Roziqova</i>	ERNEST XEMINGUEY VA TOG'AY MUROD USLUBI, ROMANLARINING TIL XUSUSIYATLARI.....910
<i>Sh.Sh.Sattorova</i>	SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE MODAL CATEGORY IN LINGUISTICS.....914
<i>Sh.Sh.Sharopova</i> <i>M.Kilicheva</i>	THE CONCEPT OF "SELF-HELP" AND CRUCIAL VIRTUES OF INDIVIDUAL IN SELF-HELP LITERATURE.....916
<i>Z.I.Rasulov</i> <i>Sh.U.Bobojonov</i>	O'ZBEK ERTAKLARIDAGI TURLI MIFOLOGIK TIL BIRLIKLARINI IFODALOVCHI MILLIY-MADANIY XUSUSIYATGA EGA LISONIY HODISALAR TAHLILI.....922
<i>R.A.Karimov</i> <i>M.R.Tursunova</i>	O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASI VA UNING INGLIZ TILIDAGI "AFFAIRS OF LIFE" TARJIMASIDA MILLIY MADANIYATNING SAQLANISHI.....925
<i>N.J.Bekova</i> <i>D.F.Achilova</i>	ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE'MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSI HAQIDA.....927
<i>S.B.Khandamova</i> <i>V.Sh.Gaybulloyeva</i>	EMILY DICKINSON AS A ROMANTIC POET.....931
<i>A.D.Amonova</i> <i>M.R.Kilicheva</i>	AMERIKA BOLALAR ADABIYOTINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....934
<i>M.Kh.Niyazova</i> <i>M.A.Tuxtayeva</i>	THE ANALYSIS OF PROVERBS IN THE WORK "THE EVENING WHEN THE HORSE NEIGHED" BY TOGAY MUROD.....936
<i>F.I.Jahonova</i>	TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARIDA SHEVALAR TAVSIFI.....939
<i>Z.R.Axorova</i>	STOITSIZM FALSAFASI VA SHARQ DIDAKTIKASI ("TAZKIRAT UL-AVLIYO" ASARI MISOLIDA).....945
<i>C.M.Ostonova</i>	ОСНОВНЫЕ ТЕМЫ ВОПРОСОВ В ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ Б. ПАСТЕРНАКА: АНАЛИЗ ВТОРОГО И ТРЕТЬЕГО ПЕРИОДОВ ТВОРЧЕСТВА.....948
<i>H.Laipov</i> <i>M.M.Hayotova</i>	"BAYOZI NEKIY" NING TUZILISHI VA TARKIBIY QISMLARI.....951
<i>N.G.Nurullayeva</i>	IQBOL MIRZONING HIKOYANAVISLIK MAHORATI XUSUSIDA.....953